

Yoshlar bandligini ta'minlash kunning dolzarb mavzusi



Yoshlar bandligini ta'minlash kunning dolzarb mavzusi

Aholisi 60 foizini yoshlar tashkil etgan Sux tumanida ishsizlik muammosini bartaraf etish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Buni birgina O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Sux tumani Kengashi tomonidan start berilgan "Yoshlar bandligini ta'minlash" mavzusidagi yangi loyiha misolida ko'rishimiz mumkin.

Yoshlarni munosib mehnatga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ushbu loyiha orqali hozirgi kunda vaqtincha ishsiz bo'lgan yoshlar bandligi ta'minlanmoqda. Loyiha shu yilning yanvar oyidan boshlab hozirgi kunga qadar tumanining barcha hududlarida o'tkazilmoqda.

Dasturga muvofiq ravishda "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Sux tumani Kengashi va fermerlar Kengashi, tuman bandlikga ko'maklashish markazi hamkorligida barcha mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan yoshlar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Yoshlar o'rtasida shaxsiy tomorqadan samarali foydalanish, yerdan ununmli tarzda hosil olib, oila daromadini kupaytirish kabi mavzularda tushuntirish ishlari olib borilayotir. Yoshlarga bo'sh ish o'rinlari taklif etish, tadbirkorlik bilimlarini oshirish, bandligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar ham katta ahamiyat kasb etmoqda.



Jumladan mart-aprel oylarida O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi Sux tumani Kengashi va tuman aholi bandligiga kumaklashish markazi hamkorligida 529 nafar vaqtinchalik ishsiz yoshlar bandligi ta‘minlanib, turli xil korxonalar-tashkilotlar, xususiyl tadbirkorlik sub’ektlari hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi.

Sux tumani hokimi Farrux Usarov tomonidan 2020 yil tumanda “Ishsizlikga barham berish” yili deb e‘lon qilinib, tuman hokimi say-harakati va tashabbusi bilan 27-nafar yoshlarimizga yer ajratilib ularning ham bandligini ta‘minlashga erishildi. O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi Sux tumani Kengashi raisi Isojon Mastonovning so‘zlariga ko‘ra, may oyining 5 sanasigacha 109-nafar yoshlarimiz haq to‘lanadigan jamoat ishlari orqali bandligi ta‘minlangan bo‘lsa, oy oxiriga borib bularning sonini 250 nafarga yetkazish rejalashtirilgan.





Hozirgi kunda mehr-muruvvatga mo'htoj oilalarning xolidan xabar olish va ularning uy yumushlariga yaqindan yordam berish maqsadida tuman Kengashi va bandlik bo'limi hamkorligida 40-nafar yoshlarimiz bandligi ta'minlanib, ular hududlardagi yakka-yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga bevosita biriktirildi. Shuningdek, "Pilla - 2020" loyihasida 51 nafar yoshlarimiz pillachilik orqali bandligi ta'minlandi - deyiladi Sux tumani Yoshlar Ittifoqi matbuot xizmatining xabarida.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-07 18:19:10